

O'tkir Hoshimovning "Qalbingga Quloq Sol" Hikoyasida Ekspressivlikni Ta'minlovchi Vosita Sukutning Qo'llanilishi

Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi

TerDU, o'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" hikoyasida qo'llanilgan ekspressivlikni ta'minlovchi vosita hisoblangan sukutning ifodalanishi haqida so'z yuritilgan va misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit So'zlar: "Qalbingga quloq sol" hikoyasi, sukut, jim qolish, ellipsisning ko'rinishi, ko'p nuqta.

Sukut (yoki jim qolish) deb, "so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi"ga aytiladi[2,113]. Adabiyotlarda sukut ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda bir necha maqsadlarda foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalashda;
2. Tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalashda;
3. Qahramonning ma'lum muddat o'ylanib qolganligini ifodalashda[2,80].

Odatda, qahramonning sukuti(jim qolish) ko'p nuqta bilan belgilanadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, ko'p nuqta bilan tugallangan hamma gaplar ham sukutga misol bo'lavermaydi. Sukut ham nutq kabi kommunikativ xususiyatga ega, chunki u so'zlovchining xohishi natijasida yuzaga keladi va xabar berish, his-tuyg'uni yetkazish, signalning navbatini almashtirish, murojaat qiluvchini faollashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Og'zaki sukut nutq bilan bir qatorda, hayotning barcha sohalarida lingvistik funksiya bajarish uchun ishlatiladi, shuningdek, turli xil yozma matnlarda qo'llaniladi[3,35].

Ba'zan muallifning o'zi qahramonning jim qolishi va uning sababini bayon qiladi. Bunday vaziyatda ekspressivlik effekt sezilarsiz darajaga tushadi: *Xotini nima desa "yo'q" deydigan so'fi bu safar birdaniga "yo'q" demasdan, xayolga ketdi. Sukut uzoqqa cho'zilganidan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan: - Nimaga indamaysiz? Xo'p deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki...(Cho'lpon)[4,81].* Keltirilgan ushbu parchada yozuvchi sukutni yozma tarzda so'z bilan, ya'ni aynan "xayolga ketmoq" birikmasi bilan ifodalab ketgan va bu o'qiyotgan kitobxonga anglashilib turibdi, bunga ko'ra sukut holati faqatgina "sukut saqlamoq" yoki "sukut qilmoq" birikmalari bilangina emas, balki "xayolga ketmoq", "tin olmoq", "termulib qolmoq", "tikilib qolmoq", "ko'z tikib qolmoq" kabilar bilan ham ifodalanadi. So'z vositasida keltirilgan sukutga nisbatan ko'p nuqta orqali beriladigan sukut kitobxonni birmuncha fikrlashga chorlashi va shuningdek, ekspressivlik darajasi yuqori bo'lishi ham shubhasiz.

Quyida sukutning ifodalanishi "Qalbingga quloq sol" hikoyasidan olingan bir qancha gaplar misolida ko'rib chiqiladi hamda tahlil qilinadi:

1. *Qayerda bo'ldi? Kim o'zi? -Zoyirjon hozir borib mushtlashmoqchi bo'lganday rangi o'chib ketdi.*

➤ *Yo'lda... (96b)*. Ushbu gapda sukut “Yo'lda...” so'zi vositasida ifodalangan va qahramonning o'ylanib qolganligini gavdalandirishga harakat qilingan

2. *Keyin internatda o'qidim, ishladim.*

➤ *Keyin-chi?*

Keyin... -Yodgorning yuragi shuv etib ketdi. “Keyin uylandim”, demoqchi bo'ldi-yu., tili bormadi (120b). Ushbu gapda sukut “keyin” so'zi vositasida ifodalangan hamda yozuvchi bu bilan qahramonning biroz muddat o'ylanib qolganligini tasvir etishga harakat qilgan. Shuningdek, “tili bormadi” so'zidan ham qahramonning sukut saqlaganligi yanada ochiqlanilgan.

3. *Nega qorong'uda o'tiribsan?! – dedi chiroqni yoqib.*

➤ *O'zim... Charos hozir o'ylagan xayollari onasi oldida fosh bo'lib qolayotgandek cho'chib unga qarab qo'ydi (125b)*. Ushbu gapda qahramonning sukuti “o'zim” so'zi vositasida ifodalangan va bu sukut uning xayol surish jarayoni bilan bog'liq holda tasvirlangan.

4. *Kuzatib qo'yaymi? Charos bu gapni u qo'rqa-pisa aytganini sezdi.*

➤ *Yo'q... - Charos titrayotgan labini tishladi (146b)*. Ushbu gapdagi sukut qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalashda faol qo'llanilgan. Sukutni ifodalashda keying yordamchi vosita sifatida “labini tishladi” birikmasini ham misol qilib keltirish mumkin.

5. *O'zing-ku, zo'rg'a uchga ilinib yuribsan. Endi boshqalarning ham boshini qotiryapsanmi?! Hovliqma, erga tegishga ulgurasan hali... U gapining davomini aytolmay qoldi. (153b)*. Ushbu gapdagi sukut qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalashda faol qo'llanilgan. Shuningdek, yozuvchi “u gapining davomini aytolmay qoldi” jumlasini vositasi bilan ham qahramonning sukutini bayon qilmoqda.

6. *Bilaman, o'shanda men qo'pollik qildim, - Dilshod boshini quyi soldi. – Sizni ranjitib qo'ydim. Lekin siz ham anavi yigit bilan... (170b)* Ushbu gapda ham yozuvchi qahramonning oxirgi jumlasini bilan o'z qahramonini o'ziga toldirib, butun boshli voqelikni kitobxon ko'z o'ngida gavdalandirishga harakat qilmoqda.

7. *Meni kechiring, - dedi anchadan keyin. Buni sizga aytmoqchi emasdim. Eshitdim, siz obro'-e'tiborli ayol ekansiz...*

Ayol gapingni ayt, deganday, qoshini chimirdi (179b). Ushbu gapdagi sukut yozuvchi tomonidan tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalashda qo'llanilgan.

8. Iskandarovning birinchi muomalasidanoq Yodgor ish yaxshilik bilan tugamasligiga aqli yetdi. “Bo'ldi... Tamom...” U qo'llarini yashirishga joy topolmagandek stul o'rindig'ini changallab yerga qaradi (191b). Yozuvchi ushbu jumalari tarkibida qo'llagan sukuti vositasida qahramonning neqadar ilojsiz ahvolga tushganini, boshi berk ko'chaga qadam qo'yganini ifodalashga urinmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ba'zan sukut yozuvchi tomonidan ochiqdan-ochiq ifodalanadi. Bu jarayonda sukutning ekspressivlik va ta'sir kuchi biroz bo'lsa-da kamayadi. Ushbu asarda ham yozuvchi tomonidan ochiqlanib ketilgan sukut jarayonlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, “Keyin uylandim”, demoqchi bo'ldi-yu., tili bormadi (120b), *Yo'q... - Charos titrayotgan labini tishladi (146b)*, *Hovliqma, erga tegishga ulgurasan hali... U gapining davomini aytolmay qoldi (153b)* kabilar misol bo'la oladi. Asar davomida qo'llanilgan sukut holati faqatgina uch nuqta yoinki “sukut saqlamoq” birikmasi bilangina emas, balki “tili bormadi”, labini tishlamoq”, “gapini aytolmay qoldi” kabi birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida yozuvchining qanchalik mahoratli ekanligiga bog'liqdir. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan turfalik asarga o'zgacha ko'rk bag'ishlashi hamda badiiy matnning ta'sirchanlik xususiyatini oshirishi asnosida kitobxonni ham zeriktirmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, biz oddiygina deb o'ylaydigan sukut jarayoni badiiy matnlarda qahramonlar nutqini ochib berishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy matnning ekspressivligi va ta'sirchanligini oshirishda, qahramonlar muloqotini jonlantirishda, voqelikni kitobxon ko'z o'ngida yorqinroq gavdalantirishda sukutning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Qahramonlarning ayni vaziyatga bo'lgan munosabatini ham sukut vositasida ko'ra olishimiz mumkin. Tahlil ostiga olingan O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" hikoyasi tarkibida ekspressivlikni ta'minlovchi vosita hisoblangan sukutning uch maqsadi (qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalash, tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalash, qahramonning ma'lum muddat o'ylanib qolganligini ifodalash) ham aniq holda tasvirlanadi. Tahlilga tortilgan gaplar tarkibidagi sukutlarning qo'llanilish maqsadi ham ayni jarayongan mansub. Sukut nafaqat asarning, voqelikning ta'sirchanligini ta'minlovchi, balki yozuvchining so'z qo'llash mahoratini ham ko'rsatib beruvchi muhim vosita hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O'. Shamol esaveradi. – Toshkent: "Meriyus", 2017. – 256b
2. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. – Toshkent, "O'qituvchi", 1992. 113-b
3. Raxmonova M. Badiiy matnlarda sukutning ifodalanishi. *Central Asian journal of education and innovation*, Volume 3, Issue 2, February 2024.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.